



Received: August 17, 2025
Accepted: September 22, 2025
Available online: September 25, 2025

Gulnora Nishonova

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Gulnora Nishonova

Candidate of Philological Sciences,
Associate Professor
University of Journalism and Mass Communications
of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: gulnoranishanova@gmail.com
ORCID iD: 0009-0006-4018-7262

“OYINA” JURNALI NASHRI VA HARBIY SENZURA MUAMMOLARI

ANNOTATSIYA

Jadidchilik harakatining rahnamalaridan biri – Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan chop etilgan “Oyina” nashri milliy matbuot tarixida dastlabki jurnal sifatida e‘tiborga molik. “Oyina” o‘z davri jurnalistikasining ilg‘or an‘analarini o‘zida mujassam etib, o‘lkadagi mahalliy xalqlarning intilishlari, orzu-armonlarini ifodalovchi jangovar so‘z minbari vazifasini o‘tadi. Uning sahifalarida jurnal muharriri Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘ziga xos rahbarlik uslubi vositasida siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy hodisalarga mahalliy xalqlar manfaatidan kelib chiqqan holda baho berildi. Jurnalni chop etishda bir qator qiyinchiliklar: moddiy tanqislik, mushtariy va mualliflarning yetarli emasligi, shuningdek, doimiy senzura nazorati mavjud edi. Shunday bo‘lsa-da, jurnal o‘z maslagi hamda maqsadidan chekinmadi, o‘lka xalqlarining milliy mustaqilligi yo‘lida katta xizmat qildi. Maqola muallfi shu masalalar doirasida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, nashr, milliy matbuot, jurnalistika, so‘z minbari, senzura, milliy mustaqillik, hukmron mafkura, harbiy senzura.

KIRISH

XX asr boshlariga kelib, hamon istibdod iskanjasida xo‘rlanayotgan Turkistonni qutqarishning yagona yo‘li – davr ziyolilari nuqtayi nazaricha, so‘z, matbuot qudratidan unumli foydalanish edi. Buning uchun matbuot moddiy manfaat yoki hukmron mafkura ehtiyojidan emas, balki millat manfaatidan kelib chiqishi kerak edi.

THE PUBLICATION OF THE JOURNAL OF “OYINA” AND THE PROBLEMS OF MILITARY CENSORSHIP

ABSTRACT

One of the prominent leaders of the Jadid movement, Mahmudkhoja Behbudi, published ‘Oyina’, which holds a distinguished place as the first journal in the history of the national press. ‘Oyina’ embodied the progressive traditions of contemporary journalism and functioned as a powerful platform articulating the aspirations and ideals of the local peoples of the region. Under the distinctive editorial leadership of Mahmudkhoja Behbudi, the journal provided assessments of political, socio-economic, and spiritual-educational developments, consistently reflecting the interests of the indigenous population. Although its publication encountered significant challenges, such as financial constraints, a shortage of subscribers and contributors, and the constant oversight of censorship, the journal remained firmly committed to its mission and objectives, making a substantial contribution to the struggle for national independence of the peoples of the region. The present article seeks to analyze these dimensions in detail.

Key words: jadidism, publishing, national press, journalism, tribune of words, censorship, national independence, dominant ideology, military censorship.

“Xurshid”, “Tujjor”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, Orenburgdagi “Vaqt” gazetasi hamda Ufadagi “Sho‘ro” jurnalida faol ishtirok etib kelgan millat jonkuyari Mahmudxo'ja Behbudiy xuddi ular kabi otashnafas, jangovar so‘z minbarlarining Turkiston uchun juda zarur ekanligini his qilardi. Natijada o‘zi bosh bo‘lib, avval “Samarqand” gazetasini, so‘ngra “Oyina” jurnalini tashkil qildi. Zero, adib o‘zining “Sayohat xotiralari”da ham turkman qardoshlarining “nimvahshiy holatda” hamon xanjar taqib yurishlarini afsus bilan ta’kidlab, “ular xanjar o‘rniga qalam tutush zamoni kelgonini bilmaydurlar” degani bejiz emasdi.

Toshkentda “Sadoyi Turkiston” va Qo‘qonda “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarida chiqqan boshlaganidan behad quvongan adib “Oyina” sahifalarida shunday yozgan: “Masolihi ummat va millatg‘a tegishli masalalar ko‘p va “Oyina” sahifalarining torligidan navbati bahs kechikmoqda va aziz zamon, noyob umr o‘tmoqda va ozaymoqda. Zamonaviy, diniy va milliy ishlar bo‘lsa, barbod bo‘lmoqda edi... Alhamdulillah... modar Vatan yana ikki lavhai ma’rifat, yana ikki fidokori millat, yana ikki xodimi din tug‘di...” [Behbudiy, 1914a].

Demak, milliy ehtiyojni qondiruvchi yagona vosita, bu – matbuot edi. “Oyina” ana shunday ehtiyoj tufayli dunyo yuzini ko‘rdi. Jurnalning har bir soni shunday so‘zlar bilan ochiladi: “MILLATi islomiyaning saodati va islohi musulmonlarning madaniyati va fununi zamoniya din naflanmoqlariga xodimdur”. Bu so‘zlar “Oyina” jurnalining o‘zak konsepsiyasi hisoblanadi. “Millat” so‘zining alohida ta’kidlanib, katta harflar bilan yozilgani bejiz emas. Chindan ham, millat xodimi bo‘lgan bu jurnal o‘z davrining ko‘zgusi, tashkilotchisi va tashabbuskoriga aylangan edi.

ASOSIY QISM

“Oyina” jurnalining ilk soni 1913-yili 20-avgustda chiqdi. U dastlab haftada bir marta, ikkinchi yildan boshlab har 15 kunda bir marotaba chiqib, o‘z faoliyatini 23 oy davom ettirdi. O‘zbek matbuoti tarixi tadqiqotchisi Ziyo Saidning ma’lumot berishicha, jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyada ham tarqalgan [Said, 1974; 45]. Ikki yil davomida uning 68ta soni (jami 1720 bet) nashr etilgan. So‘nggi son 1915-yili 15-iyunda chiqqan.

Jurnalning nashr qilinishiga oid O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi hujjatlarini ko‘zdan kechirish jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, Behbudiy qanday ishga qo‘l urmasin, qonunga qat’iy rioya qilgan. U, avvalo, Turkiston general-gubernatoridan jurnal nashri uchun rasmiy izn so‘ragan, o‘z fuqarolik va noshirlik huquqlarini bilgan holda “siyosiy” xatolarga yo‘l qo‘ymagan va shu bois oshkor ta’qiblarni chetlagani ma’lum bo‘ladi. Masalan, arxiv hujjatlarida Behbudiyning “Padarkush” fojiasini sahnaga qo‘yishdan tortib, “Samarqand” gazetasi, “Oyina” jurnali, “Yangi Samarqand” gazetasini nashr qilish, hatto haj safari oldidan jurnalga muvaqqat mudir sifatida Saidrizo Alizodani tayinlash, Samarqand shahrida kitob savdosi bilan shug‘ullanish, “Behbudiy kutubxonasi”ni ochish uchun so‘ragan ruxsatnomalari mavjud (O‘zMDA – 18-fond, 1-ro‘yxat, 8890-, 8752- va 8860-ishlar). Shuningdek, Birinchi jahon urushi davrida mahalliy matbuot ustidan kuchaytirilgan harbiy senzuraning har bir ko‘rsatmasi bilan tanishganligi va unga amal qilishi haqida

Behbudiy imzosi va muhri bosilgan hujjatlarni ko'rishimiz mumkin (O'zMDA – 18-fond, 1-ro'yxat, 8911-ish). Behbudiyning davr talabi bilan hisoblashgani, huquqiy imkoniyatlardan to'la foydalangani hujjatlardan va "Oyina"da chop etilgan materiallar ruhiyatidan ham sezilib turadi.

Jurnal uchun senzurdan ham kattaroq xavf uning moddiy jihatdan tangligi edi. Ma'lumki, jurnal sarmoyasizligi tufayli to'xtashga majbur bo'lgan "Samarqand" gazetasi o'rniga chiqa boshlagan. Bu haqda "Oyina" sahifalarida yoziladi: "...aqcha qahati, rijol qahati bizni mushkul holga qo'ydi. Va oxiri haftalik "Oyina" majallasini chiqarib turmoqni tarjih qilindi. Gazetning idorasiga kofiy (yetarli – G.N.) mushtariy mavjud bo'lguncha va yo aqcha topilguncha "Oyina" davom etar" [Behbudiy, 1913a]. Demak, gazeta o'rniga jurnal nashr etish birmuncha arzon bo'lgan. Shuningdek, Behbudiyning asab va ko'z xastaligi haftada ikki-uch marta gazeta tahrir qilishga monelik qilardi. Gazeta singari, jurnal mas'uliyati va mehnati asosan Behbudiy zimmasida edi. Shu bois u kadrlar yetishmasligini ko'p bora ta'kidlar, o'zini asosan jurnal mudiri (noshiri) sifatida ko'rsatib, imkon bo'lsa, "maosh evaziga muharrir tayinlash"ni orzu qilardi. Ammo bu orzuning ushalmagani, "Oyina"ning so'nggi sonlarigacha unga Behbudiyning o'zi muharrirlik qilgani ma'lum.

Moddiy tanglik jurnalning ilk sonlaridanoq unga tahdid soldi. Bu haqda "Oyina" sahifalarida o'quvchilarga bildirib turilgan. Masalan, ilk sonlarining birida To'lagan Xo'jamiyurov (Tavallo) "Turkistonli qardoshlarima ochiq xat"i orqali ahvolning nechog'li mushkul ekanligini yozadi, vatan ahlidan umid kutadi: "Ey qardoshlar! Atrofa boqing-da, harakat eting. Millatg'a yordamda bo'linmog'i o'zingizda vojibdur. Endi millatning "Oyina"sini birlashub, eng bo'lmasa, moddiy jihat tuzalgoncha olib bormoq kerak. "Tujjor", "Xurshid", "Taraqqiy", "Turon", "Buxoroyi sharif" va "Samarqand"dek mundin ham bebahra va benasib o'lub, butun dunyodagi millatlar oldunda sharmisor o'lub, xijolatda qolmang" [Xo'jamiyurov, 1913]. Ammo jurnal moddiy jihatdan o'zini butkul qoplay olmadi. Ikki yillik faoliyati Behbudiyning fidokorona mehnati samarasi bo'ldi. "...bu zarar mushtariylarga va yo boshqalarga yuklanilmasdin, har qancha bo'lsa-da, mudirni o'zig'a oiddur" [Behbudiy, 1913b], deb ta'kidlaydi adib. Behbudiy har qanday qiyin vaziyat bo'lmasin, biror marta iona tarzida mushtariylardan mablag' so'ramaydi. Uning yolg'iz ilinji jurnalning obunachilari sonini ko'paytirish va shu orqali moddiy yetishmovchilikni bartaraf etish edi.

Jurnalning 8-sonida mushtariylar adadi 400ga yaqin ekanligi va bu "taraqqiy emas, tanazzul"dan darak berishi ma'lum qilingan. Aynan shu maqolada Behbudiy o'z orzularini ilk bora izhor etadi: "Mushtariylar bir oz ko'paygandan so'ngra "Oyina"ni 32 sahifa va muntazam aylab va ham rasm va tasvirlarini ortdurub va bosh muharrir saqlamoqg'a niyatimiz bordur". 17-songa yetganda ahvol birmuncha yaxshilanganligi va orzuni yuzaga chiqarishga intilish seziladi. "Oyina" mushtariysi hozirg'acha 900tag'a yetmagon bo'lsa ham va agarchi bezarar chiqaturgon darajag'a yetmasa ham, "Oyina"ning hozirgi hajmig'a 32 sahifa qilib chiqarmoq uchun korxonaga qog'oz siporish qilindi. Qog'oz kelgan ila "Oyina" 32 sahifada chiqar. 32 sahifani bir kotib yozib yetkurolmaydur. Oning uchun yana bir kotib olinadur va ba'zi masoriflar

ham yana ziyoda bo'lur. Katta qog'oz ham qimmat tushar va ish ko'payur va ziyoda muharrir lozim bo'lur. Aning uchun hamiyatlik muhtaram hamvatanlarimizdin va aziz vakillarimizdin umid etarmizki, "Oyina"ga mushtariyni ko'payturmoqga harakat etub, yor va do'stlardan obuna qildursalar" [Behbudiy, 1914b]. Ammo orzu orzuligicha qoladi. 39-sonda jurnal idorasi bundan bir necha oy muqaddam bergan va'dalarini eslaydi, ammo ularning amalga oshishiga imkon yo'qligini, sarfning daromaddan ziyoda bo'layotganini ma'lum qiladi. 45- va 47-sonlarga kelib esa ahvol shu darajaga yetadiki, idora zararning oshib ketganligi bois, tezlik ila "idora aqchasini va mushtariy daftarini" tahririyat vakillaridan yubortirishni iltimos qiladi. Bunday iltimoslar "Oyina"ning 1915-yilgi sonlarida ham uchraydi.

Jurnal nashri Birinchi jahon urushi yillari yanada qiyinlashadi. Samarqandda birgina matbaa – "Товарищество Г.Базарова и К.Смирнова" litografiyasi bo'lib, uning xizmati Toshkent bosmaxonalaridan ikki barobar qimmat edi. Shuningdek, urush tufayli Samarqand choy tijoratxonolari va boshqa yerlardagi matbaa ishlari aynan shu bosmaxona zimmasiga yuklatilgan bo'lib, "Oyina"ning o'z vaqtida chiqishi qiyinlashadi. Yana bir qiyinchilik 4-5 sahifadan ortiqqa yetadigan arab shriftining yo'qligi edi. "Na chora, to bir zamona boyi chiqib, milliy bir matbaa ochguncha, ishlar shu holda davom etsa kerak", – deb e'tirof etadi jurnal noshiri [Behbudiy, 1915].

Urushning ilk kunlari aksariyat e'tiborni urush mavzusiga qaratgan, iona yig'ish, askar to'plash va bu orqali Rusiya davlati qarshisida o'z vatanparvarliklarini namoyish qilishga da'vat etgan "Oyina" tez orada bu maslagidan qaytadi. Endi u e'tiborni urush mavzusidan muhimroq masala – millat ahvoliga qaratadi. Vatanparvarlikning yuksak ko'rinishi, bu – milliy nashrlarimizni o'qish, ularga obuna bo'lish, deya e'tirof etadi. Yasama vatanparvarlikdan amaldagi haqiqiy vatanparvarlikni ustun qo'yadi. Negaki, bu davrga kelib jurnal ahvoli uning ta'biricha, "yangi va hamda sutsiz boladek o'lum holatiga yaqin" edi [Siddiqiy, 1914].

So'nggi o'xshatma ko'pgina mushtariylarga va ahli ziyoliga qattiq ta'sir qiladi, shekilli, "Oyina"ni to'xtatmaslik iltimosi bilan muharrirga dasta-dasta xatlar keladi. Hatto jurnalning to'xtash aybi muharrir vijdoniga havola etiladi. Behbudiy yana chora izlaydi. Endi u jurnalni har hafta emas, "oyinda 3 daf'a" chiqishini ma'lum qiladi. "Adad ozaymoqidin marka, matbaa va qog'oz masorifi-da ozayur... Nachora, olam taraqqiy etar ekan, biz tanazzul etarmiz". Bu jurnal birinchi yilining so'nggi sonidagi ma'lumot bo'lib, ikkinchi yilga kelib, u oyda ikki marta nashr etila boshlaydi. Bu davrda uning mushtariylari soni 300 atrofida edi.

Mushtariylar tomonidan jurnal nashri uchun ionalar yuborilgani ma'lum. Bu haqda jurnalning o'zi ma'lum qiladi. Masalan, 11-sonda Chimkentdan, 13-sonda Marg'ilondan, 15-sonda Namangandan, 22-sonda Turkiston Chinining G'ulja shahrida yashovchi shaxslardan kelgan ionalar uchun jurnal tashakkur izhor qiladi. Ammo bu kabi ionalar jurnal ta'minoti uchun yetarli emasdi.

1915-yili "Oyina" uchun juda og'ir kechadi. Jurnal faollari ancha tarqoq va kammahsul bo'lib qolishgan, sog'lig'i yomonlashgan Behbudiy uchun barcha ishni olib borish ancha og'irlik qilardi. Bu qiyinchiliklar "Oyina" yo'nalishiga ham birmuncha ta'sir qiladi. "Oyina"ning bulturgi maslagiga bu yilgisini o'xshatolmayman. "Oyina"

bultur mushtariylarg‘a “ko‘zingni och” deb qichqirar edi. Bu yil esa xonandalarini beshikda tebratib uxlatmoqdadirki, ilgari maslagida davom etsun” [“Xonandalar maktubidin”, 1915]. Mushtariylardan birining jurnalga bergan bahosi shunday edi. To‘g‘ri, buni xolis baho deb bo‘lmasa-da, jurnal ruhiyatining o‘zgarganini boshqa mualliflar ham e‘tirof etishadi. Xususan, bu haqda Mirmuhsin Shermuhamedov shunday yozadi: “Qo‘ling‘izg‘a bulturgi “Oyina”ning biror numerasin olib, hozirgisi ila muqobil qilib, mutolaa eting. Ko‘rasiz: qanday tafovut bordur. O‘z fahmingizcha maslak ham shoyad muhokama qilib ko‘ra bilursiz. Muning uchun aybni kimg‘a qo‘yamiz, “Oyina”g‘ami? Yo muharrirg‘ami? Insoniyat nuqtasidan aybni qalam arbobi o‘zimizda deb bilamiz” [Shermuhamedov, 1915].

Muallif muharrir-u shoirlarning faol emasliklarini tanqid qiladi, samarqandlik Hoji Muin, Siddiqiy Ajziy, Vasliy Samarqandiy kabi safdoshlarning yozmasliklari sababini so‘raydi. “24 sahifaning hammasi Mahmudxo‘ja qalami ila to‘ladur, desak ham bo‘lur” deb ta‘kidlaydi. Bu iddaoga “Oyina” nomidan Behbudiy kichik javob yozgan. Uning izohicha, ba‘zi mualliflarning maqolalari chiqmay qolsa, ularning havaslari so‘nib, qaytib yozmaslik odatlari borligi, bu ham bo‘lsa moddiy rag‘batning yo‘qligi, ya‘ni mushtariylar ko‘payib, muharrir va shoirlarga qalam haqlari berish imkoniyati tug‘ilsa, “qalam bozori qizib, maydoni-da kenglashur” deydi. Bu ham Behbudiyning kelajakdagi orzularidan biri edi. Yana bir jihat. O‘zi moddiy manfaatni ko‘zlamay, hatto o‘z hisobidan jurnal xarajatini ko‘tarib, fidokorlik qilayotgan Behbudiy bu xislatni boshqalardan talab qilmaydi. O‘zining sa‘y-harakatini millat oldidagi burchi, deb hisoblaydi: “10 millio‘nli tatar musulmonlarining 30 jarida va majallasi davom etganda, 10 millio‘n o‘zbek, arab, tojik, turkman va turoniyning uchgina matbuoti davom etmasa, Xudo va Rasul ham, xalqi olam na der?!” [Behbudiy, 1914a].

“Oyina” atrofida bahs boshlanadi. Mushtariylar “Oyina” ruhiyati, mundarijasi va yo‘nalishini o‘zgartirish bobida turli fikr-mulohazalar bildira boshlaydilar. Hatto “Oyina”ning “yotishiga uning nomukammalligi” va muharrirning “ilmsiz va dunyodan bexabar”ligi sabab deyuvchilar ham topiladi [Oxundiy, 1915]. Muharrir bu e‘tirozlarning hammasini nashr etadi, javob yozadi.

“Oyina” tevaragidagi bahslarga toshkentlik Abdurauf Muzaffar chek qo‘ymoqchi bo‘ladi. U “Oyina”ga maslahat beruvchilarni “odobsiz”likda ayblaydi. Jurnalga yangi maslak qidirmoq o‘rniga, moddiy yordam bermoq kerakligini uqtiradi va bu besamar gaplarni to‘xtatish mavridi kelganini aytadi: “Modda bo‘lmagan o‘rindin quvvat qidirmak ortuqcha bir daniylik bo‘lmasmu ekan”. Fikrimizcha, “maslak axtarmoq” bahonasida “Oyina” va uning muharriri sha‘niga aytilgan ba‘zi o‘rinsiz gaplar A.Muzaffarning g‘azabini keltirgan chog‘i, u adib himoyasiga shunday so‘zlar yozadi: “Muftiy janoblari boshlagan ishida fidoyi va sabotli bo‘lishi ila butun Turkistonda ma‘lum bir zotdir. Butun millat uchun bir o‘zi ham qalami, ham puli ila xizmat qilub turadur. Agar shaxsiy manfaatini kuzatsa, “Oyina”ni bu kungacha davom etdurmas edi. Bir odamg‘a bu qadar xizmat shoyad oz bo‘lmasa kerak”.

Mazkur maqoladan so‘ng Abdurauf Fitrat chiqish qiladi. Fitrat A.Muzaffarning “Oyina” islohi uchun o‘z fikrlarini yozgan kimsalarni “odobsiz” va “daniylik”da (pastkashlikda – G.N.) ayblaganini qoralaydi. Jurnal idorasining o‘zi bunga istak

bildirganini eslatib, bu kabi harakatlarni odobsizlik emas, aksincha, "Oyina"ga ehtirom sifatida qabul qilish kerakligini ta'kidlaydi. Jurnal tahririyati "Bu bir jo'ra raufnlarni mehribonliklariga tashakkur" izhor etadi.

Xo'sh, "Oyina" uchun bu kabi bahslardan qanday foyda bo'ldi? Umuman, "maslak axtarmoq"dan qanday manfaat ko'zlangan edi? Mazkur bahsdagi fikrlarga idoraning (aniqrog'i Behbudiyning) javoblarini kuzatar ekanmiz, jurnalning o'z yo'nalishini o'zgartirish fikridan uzoq ekanligiga amin bo'lamiz. Behbudiyning matbuot ishida tajribasi ancha katta edi. U gazeta va jurnalning o'ziga muvofiq maqsad va vazifalarini yaxshi bilardi. Mushtariylarning "Oyina"da muhoraba xabarlari, suddagi janjallar, shuningdek oshiqona g'azallar yozilmasligi haqidagi shikoyatlariga adib "majallalarg'a odati aksariyat ila adabiy, ilmiy, tarixiy maqolalar yozilub, xabarlar jaridalarg'a maxsusdur" deb javob beradi [Behbudiy, 1914d]. Xususan, jurnalning keyingi yil sonlarini kuzatsak, maqolalarning ko'proq adabiy-falsafiy, ilmiy-tanqidiy yo'nalishda yozilgani, ahvoldan nolish, shikoyat, ehtirosli murojaatlarning ozayganligiga guvoh bo'lamiz. Adib tahririyatga kelayotgan maqolalarning aksariyati "holimizdan afsus va maishatdan shikoyat" ekanligini ma'lum qilar ekan, bu xususda juda ko'p yozilgani, endi "Oyina" "nasoyih va tanqid, adabiy, ilmiy va tarixiy boblarda qo'lidin kelguncha xizmat qilar" deydi. Nazarimizda, jurnalning aynan shunday jiddiy, ilmiy yo'nalishi mushtariylarni zeriktirgan, turli oldi-qochdiga tashnalar jurnaldan norozi bo'la boshlagan ko'rinadi. Buni sezgan adib yuqoridagi kabi bahs-munozaralarga yo'l ochadi. Asli, o'z qarashlarida mustahkam turgan Behbudiy uchun bu – bir ma'lumot olish, jamoatchilik fikrini bilish, aniqrog'i, o'ziga xos sotsiologik tadqiqot edi, xolos.

"Oyina" o'z maslagida qattiq turdi. Kezi kelsa, uni himoya qilib chiqdi va haqiqiy matbuot mavqeini namoyish eta oldi. Jurnalnisi bahs-munozaralarga, bildirilgan e'tirozlarga tahririyat o'ziga xos dalillash mahorati bilan javoblar qilib, o'quvchilari ko'ngliga yo'l topa oldi. Mualliflarga naqadar ehtiyoj sezmasin, ularga nisbatan ancha talabchan ham bo'ldi. O'z sahifalarida maqola yozuvchilarga ko'rsatmalar berib turdi. Hatto Tavallo, Vasliy, Mirmuhsin Shermuhammad, Cho'lpon kabi bir qator sermahsul mualliflarning maqolalariga e'tirozlar bildirib, ular hatto nashr etishda rad etilganini ham kuzatamiz. Bu ham "Oyina"ning sobitligi, o'z maslagiga sadoqatini ko'rsatadi.

Jurnalning so'nggi sonidagi ikki e'londan uning to'xtashi sabablarini bilib olamiz. Birida Behbudiyning kasali xuruj qilgani va u davolanishga majburligi aytilib, shu bois jurnalning keyingi 17-soni "ko'p kechikganda 1-sentabrga chiqsa kerakdir" deyiladi. Ikkinchi e'londa esa nashr bosiladigan matbaaning ishi ko'pligi vajidan "Oyina" vaqtida chiqmaydur va maqolalar kech bosilurki, idora bayoni arz etar" deyilgan. Asli, "Oyina"da ko'p bora takrorlangan "Mushtariysiz mato' zoyedur" iborasi jurnal taqdiri uchun bashorat bo'ldi.

Jurnalning nashr etilishida, o'z maslagida ochiq bo'lishida yana bir to'siq – harbiy senzura edi. Jurnal Birinchi jahon urushida ishtirok etayotgan eng katta davlat – Rusiyaning nashri sifatida munosabat bildirishga majbur edi. Bunga harbiy senzura doimiy "hissa" qo'shib turgan.

Rusiya urush e'lon qilingani haqidagi ilk xabar jurnalning 41-sonida imperator

Nikolay II ning “farmoni oliy”si bosilishi bilan ma’lum etilgan. Urush munosabati bilan Rusiyada harbiy holatning e’lon qilinishi Turkiston o’lkasiga ham o’z ta’sirini o’tkazdi. Mahalliy boshqaruv organlari va gubernatorlarga yanada ko’proq imtiyoz va huquqlar berildi. Jome’larda podshohni duo qilish, Rusiyaga zafarlar tilash kabi majburiyatlar joriy etildi [Behbudiy, 1914e, 1914f]. Behbudiy bunday holatda hukumat bilan murosa qilish kerakligini tushundi, jurnalning 43-sonida u “Vatanparvarlik kerak” sarlavhali maqola bilan chiqdi. Behbudiy urushayotgan davlatlar, xususan, Rossiya haqida, uning aholisi, yeri, askarlarining soni xususida ma’lumotlar berar ekan, “vatanimiz bo’lmish Rusiyaga xayrixoh bo’lmoq”, “hukumatga ot va aroba va ashyo kerak bo’lganda, osonlik ila bermoq kerak”ligini uqtirdi. Shuningdek, aholini urush vahimasidan tinchlantirishni ham ko’zlatdi. “Biz to’rt ming chaqirim uzoqdamiz”, “urushni Turkistonga siroyat etishi (o’tishi – G.N.) amri maholdir” so’zlari maqolada uch bora takrorlangan.

Adib o’z fikrlarini jurnalning 44-sonidagi “Ionat kerak, ko’ngilli askar kerak” maqolasida davom ettirdi. Endi u Rossiya g’alabasi uchun mablag’ yig’ib, hukumatga topshirish, ko’ngilli askarlardan iborat musulmon bataloni tuzish fikrlarini bildirdi va bu bilan “ruslar huzurida fazlan vatanga sadoqatimiz sobit bo’lib, tilimizni uzunligiga hamda diniy va milliy ishlarimizni tavsiya va rivojini hukumatdan iltimos etishimizg’a qulay bo’lur”, deb yozdi. Behbudiy bu so’zlarni insonparvarlik yuzasidan yozdimi yoki ishonuvchanligidanmi? Nahot, adib mustabidga do’st tutinib, undan zarur huquqlarni qayta olishga ishongan bo’lsa? Fikrimizning xato ekanligiga jurnalning keyingi sonlarini o’qib, iqror bo’lar ekanmiz, buni ham Behbudiy qo’llagan murosa yo’llaridan biri, deyishga haqlimiz.

O’zbekiston Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarni ko’rganimizda, jurnalning bunday yo’l tutishiga harbiy senzuraning kuchli nazorati sabab bo’lganiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. 1914-yil 19-avgust kuni Turkiston harbiy okrugidan Samarqand viloyati harbiy gubernatoriga yuborilgan maxfiy xat mahalliy matbuotda Rossiya manfaatlariga zid bo’lgan maqolalarning paydo bo’lishiga yo’l qo’ymaslik mazmunida edi (O’zMDA – 1-fond, 1-ro’yxat, 8752-ish). Bu senzuraning kuchaytirish taklifi bo’lib, Behbudiy maxfiy buyruq bilan tanishtiriladi va “o’qidim, ma’lumot uchun qabul qildim” deya imzo chektiriladi. Mazkur buyruq natijasida muharrirga jurnal bosilishidan oldin, uni senzoralar ko’rigidan o’tkazish majburiyati yuklatiladi.

1915-yil boshida senzura yanada tahlikaga tushadi. 3 yanvar kuni Samarqand viloyati harbiy gubernatoriga yuborilgan navbatdagi maxfiy xatda Rossiya harbiy bo’linmalariga oid ma’lumotlar, asir tushganlarning maktublari, shuningdek, ruslar go’yo nemis harbiy kuchlarining ahamiyatsiz qismi bilan jang olib borayotgani haqida matbuotda yozmaslik ma’lum qilingan. O’z navbatida, gubernator Samarqand shahar polismeysteriga bu haqda Samarqandda chiqayotgan “Заря Туркестана” gazetasi va “Oyina” jurnali muharrirlariga ma’lum qilishni buyurgan. Behbudiydan bu haqda tilxat olingan. 10-fevral kuni har bir mahalliy noshir o’z nashrining har sonidan bir nusxa Turkiston harbiy okrugi qoshidagi harbiy senzura komissiyasiga yuborishi shartligi e’lon qilingan (O’zMDA – 18-fond, 1-ro’yxat, 8911-ish). Bu ko’rsatma ostida ham Behbudiyning imzosi bor. Shu kabi maxfiy xatlar 21-sentabrgacha oyiga

2-3 marotaba kelganligini arxiv materiallari orqali kuzatamiz. Senzura hatto maxfiy ko'rsatmalarning birida urush hududlaridagi ob-havo ma'lumotini e'lon qilishni ham taqiqlagan. Darvoqe, Behbudiy ham G.Andreyevning "Urush mavzusiga jurnalda nima sababdan kam joy ajratgansiz?" degan savoliga "Zamon alg'ov-dalg'ov, xavfli, shunga ko'ra anchayin ehtiyot bo'lib yozishga to'g'ri keladi" degan mazmunda bejiz javob bermagan edi [Andreyev, 1915]. Qizig'i shundaki, jurnal o'z faoliyatini to'xtatgan davrda ham senzoralr Behbudiyini bu kabi ko'rsatmalar bilan tanishtirish va tilxat olishda davom etganlar.

Matbuot ustidan senzurani kuchaytirishga urinishlar ko'plab sodir bo'ldi. Turkiston general-gubernatoriga 1915-yil 10-aprelda yuborilgan bir maxfiy xatda shunday jumalarni o'qiymiz: "...tarjimon musulmon tilida nashr etilayotgan jurnallarni so'zma-so'z tarjima qilishga qodir emas. Uni boshqa vazifalardan ozod qilgan holda ham bu ishni to'la amalga oshirib bo'lmaydi. Natijada maqolalar mazmunini qisqacha bayon etish yoki mundarija tariqasida qayd etishga to'g'ri kelmoqda. Bunday vaziyatda jurnal yo'nalishi va xarakteri haqida fikr yuritish qiyin. Jurnal tahririyati qonunni chetlab o'tgan holda, mahalliy aholi ichida hukumatga zid bo'lgan g'oyalarni targ'ib qilishga muvaffaq bo'ladi. Shunga asoslanib Toshkent shahrida musulmon nashrlari bo'yicha maxsus nozir lavozimi ta'sis etilishini taklif qilardik" (O'zMDA – 1-fond, 31-ro'yxat, 1017-ish).

Darhaqiqat, jurnal senzurani chetlagan holda urushga milliy-insoniy nuqtayi nazardan qarashga ham muvaffaq bo'ladi. Endi u urush keltirayotgan zararlar haqida yoza boshlaydi. 43-sondagi xabarda urush barcha mamlakatlarga kuniga 500 million frankka tushayotganini ma'lum qiladi, 46-sonida so'nggi 300 yil ichida sodir bo'lgan urushlar haqida so'z ochadi, 50-sonida XIX asrda Yevropada sodir bo'lgan katta urushlarning chiqimini keltiradi. "Oyina" 1915-yil 8-sonida boshlangan urush oqibatida har bir davlatning shu kunga qadar qancha zarar ko'rganini bayon etar ekan, "...agarda bu aqcha va ruhlar ilm va madaniyat yo'lig'a, insoniyatni taraqqiy va ma'murayi olamni rivojig'a sarf qilinsa edi, olamimiz jannat misolinda va bani odam ma'sud va baxtiyor bo'lur edi", deb yozadi.

"Oyina" urushga qarshi kayfiyat tug'dira boshlaydi, uning zararli ekanligini ta'kidlaydi. Endi jurnal g'alaba uchun emas, musulmon askarlari va yaradorlar, yetimlar nafiga pul yig'ishni taklif etadi. Xabarlarda musulmon askarlariga xayrixohlik seziladi. Jurnal Orenburgda madrasalarning musulmon gospitali qilinganligi, "Hiloli ahmar" jamiyatining musulmon yaradorlariga ko'rsatayotgan g'amxo'rliklari haqida ruhlanib yozadi, yaralangan musulmon ofitserlarini nomma-nom sanaydi. Jurnalning 46-sonida Orenburgda muvaqqat musulmon yetimxonasi ochilgani ma'lum qilinadi va unga moddiy yordam ko'rsatish taklif etiladi. 1915-yilgi 16-sonida esa boquvchisidan mahrum bo'lgan musulmon oilalariga madad berish borasida katta publitsistik maqola chiqadi. Petrogradda tashkil qilingan "muvaqqat musulmon komiteti" bunday oilalarga yordam berayotgani haqida yozilar ekan, ayni paytda, bu xayrli ishda qatnashishga "Oyina" jurnali idorasi taklif etilgani ma'lum qilinadi. Negaki, Kavkaz va tatar nashrlari anchadan beri bu xayrli ishga bosh qo'shgan edilar. "Oyina" idoraga iona yuborishni taklif qilar ekan, yuboriluvchilarning nomlari jurnalda zikr

etilishini ma'lum qiladi. Afsuski, bu xayrli ishda jurnal ishtirok eta olmagan. Negaki, bu uning so'nggi soni edi. Qisqa faoliyati davomida Cho'lpon iborasi bilan aytganda, "Turkistonga xizmati buyuk" [Cho'lpon, 1998] bo'ldi. Abdulla Avloniy esa "Bu... jurnallarning eng birinchisi va yaxshisi edi", deya ta'riflaganida tamomila haq edi [Avloniy, 1924].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek jurnalchiligining dastlabki namunasi bo'lgan "Oyina" matbuotchilikning ilg'or an'ana va tajribalaridan yaxshi xabardor, bilimdon, shuningdek millatparvar shaxs – Behbudiy raxnamoligida salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdi. Jurnal o'z davrining dolzarb masalalari borasida ahamiyatli publitsistik chiqishlar qildi. Musulmon olamining tanazzulga uchrash sabablarini tadqiq etdi, taraqqiyot shartlarini birma-bir ko'rsatdi, istibdodga zamin bo'luvchi omillarga qarshi choralar izladi. Ammo bu haqda ochiq yozish mumkin bo'lmagani bois, o'ziga xos uslub va mahorat bilan senzuraning oshkor ta'qiblarini chetlab o'tishga muvaffaq bo'ldi. Bu Behbudiy qo'llagan o'ziga xos diplomatiya yo'li edi. Jurnal moddiy ta'minoti yetarli bo'lmagani sababidan to'xtashga majbur bo'ldi. Shularga qaramay, "Oyina" haqiqiy matbuot mavqeyini namoyish eta oldi, o'z maslagida qattiq turdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andreyev, G. (1915 god 17 sentyabrya). Samarkandskiy zhurnal «Oyna» i yego redaktor-izdatel' Mahmud Khodzhi Behbudi. *Turkistanskiye vedomosti*.
2. Avloniy, A. (1924-yil 24-iyun). Burung'i o'zbek vaqtlil matbuotining tarixi. "Turkiston" gazetasi, 295.
3. Behbudiy, M. (1913a). Bayoni hol. "Oyina" jurnali, 2, 2–4.
4. Behbudiy, M. (1913b). Muhtaram o'quvchi va yozuvchilarimizga ochiq maktub. "Oyina" jurnali, 8.
5. Behbudiy, M. (1914a). «Sadoi Turkiston» yoki «Sadoi Farg'ona» yohud Turonning egizak-tav'amon farzandlari. "Oyina" jurnali, 25.
6. Behbudiy, M. (1914b). Axtor. "Oyina" jurnali, 17.
7. Behbudiy, M. (1914d). Idoradin. "Oyina" jurnali, 52.
8. Behbudiy, M. (1914e). Samarqand xabarlari. "Oyina" jurnali, 41.
9. Behbudiy, M. (1914f). Samarqandda iyd. "Oyina" jurnali, 43.
10. Behbudiy, M. (1915). E'tiroz. "Oyina" jurnali, 12.
11. Oxundiy. (1915). O'rinsiz e'tiroz. "Oyina" jurnali, 14.
12. Said, Z. (1974). *Tanlangan asarlar* (Sh.Turdiyev (Nashr. tayyorl.)). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
13. Siddiqiy, S. (1914). Turkiston jaridalari. "Oyina" jurnali, 49.
14. Xonandalar maktubidin. (1915). "Oyina" jurnali, 8.
15. Xo'jamiyrov, T. (1913). Turkistonli qardoshlarima ochiq xat. "Oyina" jurnali, 6.
16. Shermuhamedov, M. (1915). Muharrir va matbuotimiz. "Oyina" jurnali, 9.
17. Cho'lpon, A. (1998). Turkistonda matbuot (qayt. nashr). "Jamiyat va boshqaruv" jurnali, 2. 43-44.

REFERENCES

1. Andreev, G. (1915, September 17). The Samarkand journal 'Oyna' and its editor-publisher Mahmud Khodji Behbudi. *Turkistan Gazette*.
2. Avloniy, A. (1924, June 24). The history of the early Uzbek periodical press. *Newspaper of 'Turkistan'*, 295.

3. Behbudi, M. (1913a). Autobiography. *Journal of 'Oyina'*, 2, 2–4.
4. Behbudi, M. (1913b). An open letter to our esteemed students and writers. *Journal of 'Oyina'*, 8.
5. Behbudi, M. (1914a). 'Sadoi Turkiston' or 'Sadoi Farg'ona', or the twin children of Turon. *Journal of 'Oyina'*, 25.
6. Behbudi, M. (1914b). Seeker. *Journal of 'Oyina'*, 17.
7. Behbudi, M. (1914c). From the administration. *Journal of 'Oyina'*, 52.
8. Behbudi, M. (1914d). News from Samarkand. *Journal of 'Oyina'*, 41.
9. Behbudi, M. (1914e). Eid in Samarkand. *Journal of 'Oyina'*, 43.
10. Behbudi, M. (1915). *Objection*. *Journal of 'Oyina'*, 12.
11. Cholpon, A. (1998). *The press in Turkistan* (repubd. ed.). *Journal of Society and Governance*, 2, 43–44.
12. From the letter of the singers. (1915). *Journal of 'Oyina'*, 8.
13. Khojamiyurov, T. (1913). An open letter to my brothers in Turkistan. *Journal of 'Oyina'*, 6.
14. Okhundi. (1915). Groundless objection. *Journal of 'Oyina'*, 14.
15. Said, Z. (1974). *Selected works* (Sh. Turdiyev (Ed.)). Tashkent: Literature and Art Publishing House named after Gafur Gulom.
16. Shermuhamedov, M. (1915). The editor and our press. *Journal of 'Oyina'*, 9.
17. Siddiqi, S. (1914). The Turkistan newspapers. *Journal of 'Oyina'*, 49.